O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

mos himoya choralarini ustuvor deb belgilaydi [5]. Bu tavsiyalar xorijiy til darsida ham akademik halollikni jazoga asoslangan nazorat emas, shaffof foydalanish madaniyati orqali shakllantirish zarurligini anglatadi.

Generativ AI barcha o‘quvchilar uchun bir xil imkoniyat yaratmaydi. Qurilma, internet, pullik xizmatlar, raqamli savodxonlik va samarali so‘rov tuzish malakasidagi tafovut natijaga ta’sir qiladi. Shu sababli AIli topshiriq uchun muqobil variantsiz baho qo‘yish adolat tamoyiliga zid bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi bir xil maqsadga olib boradigan AIli va AIsiz yo‘lni taklif etishi, qurilmadan umumiy foydalanishni tashkil qilishi va so‘rov tuzish strategiyasini o‘rgatishi lozim.

Generativ sun’iy intellekt ingliz tili ta’limida individual mashq, tezkor fikr-mulohaza, kommunikativ vaziyat va yozma nutqni rivojlantirish uchun salohiyatli vositadir. Uning samarasi tayyor javoblar bilan emas, o‘quvchining til faoliyati, tekshirish amali va mustaqil qarori bilan o‘lchanishi kerak. Taklif etilgan model maqsad, aniq so‘rov, tekshirish, qayta ishlash va refleksiyani yagona jarayonga birlashtiradi. Bunda AI yordamchi bo‘lib qoladi, o‘qituvchi metodik boshqaruvni, o‘quvchi esa mualliflik va javobgarlikni saqlaydi. Model samaradorligini turli til darajalari va ko‘nikmalar kesimida tajriba-sinov asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kasneci E. et al. ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education. Learning and Individual Differences. 2023. Vol. 103. Article 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274

2. Kohnke L., Moorhouse B. L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning. RELC Journal. 2023. Vol. 54, No. 2. P. 537-550. https://doi.org/10.1177/00336882231162868

3. Du J., Daniel B. K. A systematic review of AI-powered chatbots for English as a foreign language speaking practice. Computers and Education: Artificial Intelligence. 2024. Vol. 6. Article 100230. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2024.100230

4. Kohnke L., Zou D., Moorhouse B. L. Technostress and English language teaching in the age of generative AI. Educational Technology & Society. 2024. Vol. 27, No. 2. P. 306-320. https://doi.org/10.30191/ETS.202404_27(2).TP02

5. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. 44 p. https://doi.org/10.54675/EWZM9535

YOSHLARDA PSIXOLOGIK YETUKLIKNI YUZAGA KELISHINING SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI

Fayzullayeva Gulrux Jumaniyozovna

O‘zbekiston Milliy universitet Jizzax filiali

Psixologiya kafedrasi assistenti

gulrukhfayzullayeva857@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarni oilaviy muhitga tayyorlash,ularning nikohini barqarorlashtirish ko‘p jihatdan yoshga xos xususiyatlar

bilan shakllanishi,psixologik yetuklik rivojlanishiga shart sharoitlar yaratilishi va unga ta’sir etuvchi bir qancha omillar bo‘lishi haqida bahs munozaralar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Shaxs,psixologik yetuklik,nikohga tayyorgarlik,yoshlik,erta yetuklik,tarbiya,ma’suliyatlilik,boshqaruvchanlik.

Shaxs haqida gapirilganda uning yetukligi bilan birga, yetarli darajada yetuk emasligi ham kuzatiladi. Bu birinchi o’rinda o‘smir o‘spirinlikda ta’lim-tarbiyaga yetarli e’tibor qaratilmaganligidan dalolat beradi. Zero, oilada bolaning fiziologik yetukligi bilan aqliy va psixologik yetukligiga e’tibor qaratish nihoyatda muhimdir. Bunda albatta, ota-onaning va tarbiyalovchining o’zini yetukltik darajasi ham ahamiyatlidir. yetuklik – yetuk tushunchasi bilan izohlangan, yetuk - jismoniy jihatdan to’la rivojlangan, kamolatga erishgan, bilimli, ilmli, o’z ishida katta tajriba, bilim, mahorat orttirgan; tajribali, yuqori saviyada ishlagan; pishiq, puxta” deb ta’riflangan. Psixologiya fanlari doktori, professor G’.B.Shoumarov yetuklik tushunchasiga “to’la yetuklik” tushunchasi orqali izoh beradi. M.G.Davletshin, E.G.G’oziyev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonovalar biz ko’targan muammoni o’qituvchi fikrini yanada shakllantirish, mantiqiylik, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrni ifodalash muammolarini uyg’unlashtirgan holda o’z tadqiqotlarida yoritib berdilar. Biror narsa yoki hodisa ro’y bergan, berayotgan voqea-hodisa xususida miyamizdan o’tgan tuyg’ularimiz-fikrdir. Fikrlarni tartibga solish, ularni o’z o’rnida ishlatish va boshqarib turishga javobgar bo’lgan jarayonni psixologlar fikrlash yoki tafakkur deb ataydilar.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o‘z navbatida o‘ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunar faoliyatida ma’naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan yangi cho‘qqilarga erishib boruvchi mavjudotdir. Agar odamni u yoki bu faoliyatga «to‘la yetukligi» haqida gapiradigan bo‘linsa, demak bu uning ma’lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun ham odamning nikohga va biron-bir faoliyatga yetukligi haqida so‘z borganda“yetuklik” tushunchasi tom ma’noda o‘rinli bo‘la olmaydi. Shuning uchun ham odamning “yetukligi”, ayniqsa nikohga, oilaviy hayotga “yetukligi”haqida gapirilganda bu tushunchadan ma’lum bir umummaqbul qilingan standart, o‘rtacha me’yor, ma’lum bir shartli ,,o‘lchov birligi’’, ko‘rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi.

Psixologik yetuklik boshqa insonlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma’lum darajada bevosita aloqador. Bu o‘z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo‘lga qo‘yilishiga, oilada, turli guruhlarda gormonik munosabatlarning o‘rganilishiga imkon beradi. Har xil yoshdagi, mansab, lavozim, toifadagi odamlar bilan, qiziqishi, odati, ta’bi, turmush tarzi mutlaqo boshqacha bo‘lgan odamlar bilan joy-joyida munosabatda bo‘la olish — shaxsning psixologik yetukligining asosiy jihatlaridandir.

Nikoh oldi omillarining muhim xususiyatlaridan yana biri yoshlarning tanishish shartlaridir. Ular ham o‘z navbatida o‘zgachalikkaa ega. Har kimning tanishuvi har xildir.Kimdir o‘qish, ish joyida, kimdir o‘zi, kimdir biror-bir o‘rtog‘i, dugonasi, qarindoshi, kimdir sovchilar yordamida, kimdir ko‘chada, jamoatchilik joylarida, transportda, turli marosimlar, to‘ylar, kechalar, o‘tirishlar va hokazo shart-

sharoitlarga ko‘ra tanishishlari mumkin. Albatta, bularning barchasida shu yoshlarning individual xususiyatlari, ma’naviy axloqiy jihatlari, madaniyati, tarbiyasi, shu yoshlar yashagan hudud, undagi milliy urf-odatlar, an’analar, etnik xususiyatlar muhim ahamiyatga egadir.

S.K.Nartova-Bochaver psixologik yetuklikning mezoni sifatida “shaxsning psixologik suverenligi” tushunchasini taklif etadi. Uning yondoshuviga ko’ra, psixologik yetuk inson o’zining mustahkam chegaralariga ega bo’ladi. Biroq ular vaziyat taqozosi bilan boshqalar manfaatlari yo’lida uning ixtiyori bilan o’zgartiriladigan darajada egiluvchanligi bilan ajralib turadi.

I.V.Dubrovina nikohga psixologik tayyorlikni ko‘rib chiqadi psixologik motivlarni birlashtiruvchi ajralmas xususiyat sifatida,ta'minlaydigan bilim, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlar nikohda turmush o‘rtoqlarning munosabatlarini qurish va bunday tarkibiy qismlarda ifodalangan: motivatsion (to‘plamni muvaffaqiyatli yakunlash zarurati).vazifa, faoliyatga qiziqish, muvaffaqiyatga erishish istagi va o‘ziga adolat qil);[1]

– kognitiv (burchlarni, vazifalarni tushunish, uni baholash ahamiyati, maqsadga erishish vositalarini bilish, ifodalash vaziyatdagi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar, aks ettirish, qobiliyat,rejalashtirish, tanlash, qaror qabul qilish);

– hissiy (mas'uliyat hissi, muvaffaqiyatga ishonch,ilhom);

– xulq-atvor – konflikt vaziyatidagi shaxs xulq-atvorining xususiyatlari.

Umuman, biz nikohga tayyorgarlik deb quyidagi uning asosiy xususiyatlarini ta’kidlaymiz,jismoniy jihatdan qizlarning sog‘lom farzand ko‘rishi uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligi,yigitlarimizning ham jismoniy jihatdan baquvvatligi, ijtimoiy jihatdan esa ta’limni tugatganligi,kasb-hunar egallaganligi mustaqil mehnat faoliyatini boshlash nazarda tutiladi.Oilaga psixologik tayyorlik rivojlangan muloqot qobiliyatlari, dunyoga, oilaviy hayotga qarashlarning birligi yoki o‘xshashligi; xarakter va his-tuyg‘ularning barqarorligida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Дубровина И. В. Проблемы психологической подготовки студенческой молодежи к семейной жизни / И. В. Дубровина // Вопросы психологии. — 2015. №4. С. 146.
2. Arapbayeva D.K, Norkulova N. Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy-amaliy masalalari. – Gold-Print Nashr”, 2019
3. Узнадзе Д. Н. Общее учение об установке / Д. Н. Узнадзе // Хрестоматия по психологии. — М.; Просвещение, 1987. — 627 с;
4. Бутаева У.А. Психологик Етуклик Даражасини Ташхис Қилишнинг Психологик Хусусиятлари.Монография
5. Файзуллаева, Г. (2022). Oilada muloqotchanlikka kirishishning psixologik jihatlari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 469-471.
6. Alimov, N., & Gulrukh, F. (2022). Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 6, 38-41.